



ABOUT THE CONFERENCE ON THE EVE OF THE 500TH ANNIVERSARY OF THE BIRTH OF ALISHER NAVOI

Ishonkhanova Iroda Abduvakhitovna

Senior teacher of the Department of Uzbek Language and Literature
Education, Tashkent State University named after Alisher Navoi, Doctor
of Philosophy in Pedagogical Sciences, (PhD)

irodaishonxanova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15577008>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Conference, lecture,
Alisher Navoi, Timurids,
Turkic peoples, culture,
calligraphy, music.

ABSTRACT

The process of studying the life and work of Alisher Navoi is actively carried out not only in our country, but also abroad. In this regard, it is worth noting the activities of Russian literary scholars. The article discusses the conference organized by the Writers' Union of Uzbekistan. Russian scholars participated in it and gave lectures reflecting various aspects of the era in which Navoi lived, shared their research and opinions.

ALISHER NAVOIY TAVALLUDINING 500 YILLIGI ARAFASIDAGI KONFERENSIYA HAQIDA

Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

irodaishonxanova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15577008>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Konferensiya, ma'ruza,
Alisher Navoiy,
temuriylar, turkiy xalqlar,
madaniyat, xattotlik,
musiq.

ABSTRACT

Alisher Navoiy hayoti va ijodining tadqiq etilishi jarayoni nafaqat bizning yurtimizda, balki xorijda ham faol olib boriladi. Bu borada rus adabiyotshunos olimlari faoliyatini alohida ta'kidlash lozim. Maqolada O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan konferensiya borasida so'z boradi. Unda rus olimlari ishtirok etishgan hamda Navoiy yashagan davrning turli tomonlarini aks ettirgan holda ma'ruzalar o'qishgan, o'z tadqiqotlari hamda fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashganlar.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi, mana bir necha asrki, dunyo miqyosida mutaxassis olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Bu borada turli millat adabiyotshunoslari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ularda mutafakkir shoirimizning ko'pgina jihatlari o'rganiladi. Ayniqsa, rus filolog olimlari tomonidan bu borada salmoqli tadqiqotlar olib borilgan. Rus adabiyotshunosligida Alisher Navoiyga bag'ishlangan ilk tadqiqot sifatida 1856-yilda Muxail Nikitskiy tomonidan yozilgan "Amir Alisher Navoiy" deb nomlangan magistrlik dissertatsiyasi keltirilgan. 1940-yil oktyabr oyida Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi arafasida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida konferensiya kursi o'tkazilgan. Ushbu konferensiyadagi ayrim ma'ruzalar haqida ma'lumot bermoqchimiz.



Tadbir O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi, shoir Hamid Olimjonning kirish so'zi bilan boshlangan.

Hamid Olimjon, jumladan, shunday degan:

“O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Navoiy ijodi bo'yicha kurs-konferensiya chaqirib, ulkan vazifa bajaryapti, bu bilan nafaqat adabiyotga aloqasi yo'q odamlardan xalos bo'lishga qodirligi, balki muhim adabiy masalalarni kerakli darajaga ko'tara olish imkoni borligini ko'rsatmoqda.” [Стен. отчет I, 1940: 106]

Konferensiyaning ilk ma'ruzasi professor Yakubovskiyga tegishli bo'lib, “Вопрос этногенеза узбекского народа”/ “O'zbek xalqining kelib chiqishi masalasi” deb ataladi. Turkiy xalqlarning kelish chiqishi, urug'lar haqida qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Ma'ruzada o'zbeklar yashaydigan hudud 4 qismga bo'lingan:

1. So'g'd. Bir tomondan qadimiy So'g'd – Zarafshon daryosi vodiysi – Samarqand yuqori qismidan Panjikent xarobalarigacha. Ikkinchi tomondan Qashqadaryo daryosi vodiysidan Amudaryogacha bo'lgan hudud.

2. Farg'ona nomini olgan ulkan hudud.

3. XI asrdan markazi Toshkent bo'lgan Shosh hududi. Xo'jandga yaqin joylashgan, Toshkent viloyatini o'z ichiga oladi.

4. Janubiy Xorazm [Стен. отчет I, 1940: 4]

Bundan tashqari, Kushon davlati, Turk xoqonligi, Qutayba qo'zg'oloni (7-8 asr arablar bosqini), Muqanna qo'zg'oloni, Qoraxoniylar hukmronligi davri haqida ma'lumot va tahlillar berilgan.

Keyingi ma'ruzachi Yevgeniy Bartold “Туркистан в эпоху монгольского нашествия”/ “Turkiston mo'g'illar istilosi davrida” mavzusida gapirgan. Unda qarluqlar, chigillar, yag'molar, o'g'uzlar haqida qiziqarli faktlar keltirilgan. Shuningdek, somoniylar hukmronligi, Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy kabi buyuk allomalarimiz shaxsiyatiga to'xtab o'tilgan. O'sha davrdagi siyosiy va ijtimoiy hayot tafsilotlari, fan va madaniyat arboblari faoliyati ma'ruzada atroflicha aks ettirilgan.

Ma'ruzada Temuriylar hukmronligi davri ham yodga olingan. Chunonchi, Mirzo Ulug'bek va Abdulatif munosabatlari tahlil qilingan. Alisher Navoiyning saroydagi davlat ishlari bilan bandligi, yirik davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga baho berilgan. Muhammad Yodgor va Husayn Boyqaroning taxt talashishlari tavsiflangan.

Алишер Навоий, бошқа аъёнлардан фарқли ўлароқ, халқни севган, ўз манфаатини ўйламаган. [Стен. отчет I, 1940: 14] Shuningdek, Alisher Navoiyning bunyodkorlik ishlari, Astrobodga surgun qilinganligi, Mo'min Mirzoning o'ldirilishi, Husayn Boyqaro va Badiuzzamon ixtilofi, xullas, ijodkorning hayot yo'li vafotiga qadar berilgan. Bundan tashqari, “suyurg'ol”, “tarxon”, “ushr”, “begar”, “ulag”, “mirobona”, “dorug'ona” atamalariga izoh ham berilgan. Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Habib us-siyar” asarlari mohiyatiga ham to'xtab o'tilgan.

Professor A.G.Yakubovskiyning keyingi ma'ruzasi «Средняя Азия в I-й половине XV-го века»/ “XV asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo” deb ataladi. Unda asosan Temuriylar hukmronligi masalalariga to'xtab o'tilgan. Ma'ruzachi aniq fanlarning Hirotda emas, Samarqandda rivojlanganligini muammosini o'z oldiga savol sifatida qo'yadi. Bunga aniq fanlarning rivojiga xayrixoh bo'lgan mafkuraviy sharoitning mavjud emasligini sabab qilib



ko'rsatadi. Umuman, XII – XIII asrlarda ilmiy fikrlash masalasi og'ir bo'lganligiga ma'ruzachi dinning reaksiyalarini asos deb hisoblaydi. [Стен. отчет I, 1940: 133]

U o'z nutqida Amir Temur, temuriylar sulolasi, Boysunqur Mirzoning kitobchilik faoliyati (Tehron, Leningraddagi saqlanayotgan qo'lyozmalar), Ulug'bek davri muhiti (uning observatoriyasi bilan bog'liq ma'lumotlar) masalalarini yoritgan.

Shuningdek, Alisher Navoiy saroyda faoliyat ko'rsatish davridagi voqealarga ham ma'ruzachi munosabat bildirgan. 1472-yil lavozimga tayinlangan Majdiddinning shaxsiyati haqida so'z borgan. Yakubovskiyning fikricha, Bartold uni ijobiy baholagan, Olim Sharafuddinov esa uni johil odam sifatida tasvirlagan. [Стен. отчет II, 1940: 130]

Ma'ruzachi O'rta Osiyo va Erondagi darvishlar oqimining bir-biridan farqi haqida fikr yuritgan. Unga ko'ra Erondagi diniy oqimlar nisbatan erkin harakat qiladilar, O'rta Osiyo so'fiylari esa xalqparvarlik g'oyalari bilan ulardan farq qiladi. Samarqandda Shayxulislom va boshqa diniy arboblardan Mirzo Ulug'bek bilan birgalikda ish ko'radilar. [Стен. отчет I, 1940: 136]

Olimning nutqida, shuningdek, Mirzo Ulug'bekning o'limi, bunda o'g'li Abdulatifning qo'li borligi, Hirotda Abulqosim Bobur va Sulton Mahmud janglari, Abu Saidning harakatlari, Husayn Boyqaroning hukmronlik yillari, yaxshi jangchi va hukmdor ekanligi, Navoiy bolalikdan u bilan do'st bo'lgani, Samarqand va Mashhadda ta'lim olgani, bilim orttirgani va ko'p tillarni bilgani kabi masalalarga alohida to'xtab o'tilgan.

"Bu saroy amaldorlari avlodlarining butun bir guruhi edi, deydi ma'ruzachi. – Bu guruh Sulton Husayn atrofida shakllangan bo'lib, bu guruh orasida Alisher Navoiy buyuk shoir bo'lgani va xalqni birinchi bo'lib chinakam tanigan va sevgan, uning manfaatlarini o'ylaganligi bilan ajralib turadi. Qolganlarning hammasi o'zlarining shaxsiy manfaatlarini bilan bog'liq holda band edilar. Bu holat juda muhim. Shuning uchun Alisher Navoiy saroyga va Sulton Husayn shaxsiga yaqinligi tufayli qiyinchilikka uchraydi". [Стен. отчет II, 1940: 14]

Navoiyning bunyodkorlik faoliyati ham nazardan chetda qolmagan.

"Shu narsaga ko'z yummasligimiz kerakki, - deb fikr bildiradi ma'ruzachi, Alisher Navoiy boshchilik qiladigan bunyodkorlik ishlari katta mablag' talab qilardi. Xondamir ham, Bobur ham, Bartold ham hikoya qilishlaricha, 87-yilda (1487-yil nazarda tutilgan bo'lishi kerak) Husayn Boyqaro undan ma'lum miqdordagi pulni berishni so'raydi. Men Xondamir va Bobur versiyalarini aytib o'tirmayman, ular bir-biridan farq qilmaydi, Bartoldda hamma ma'lumotlar berilgan. Faqat shuni aytishim mumkinki, Sulton Husayn Boyqaro moliya bo'yicha javobgar amaldorlardan zarur pullarni so'raganida, xazinada pul yo'qligi ma'lum bo'lgan". [Стен. отчет II, 1940: 15o6]

Shu holatda Navoiyning qo'lidan katta mablag' o'tishidan norozi bo'lgan Majdiddin o'rta chiqadi. Natijada Navoiy Astrobodga yuboriladi.

Husayn Boyqaro haqida shunday deyilgan: "90-yillarda u bilan to'ng'ich o'g'li Badiuzzamon o'rta tarang munosabatlar, ziddiyatlar yuzaga keldi. Bu to'ng'ich o'g'il Husayn Boyqaroning Sanjar Mirzo Marviyning qizi bilan bo'lgan birinchi nikohidan tug'ilgan. Birinchi xotinini u uncha yoqtirmagan, balki shuning uchun o'g'lini ham yaxshi ko'rmagan. Uning xotini haqida Boburning shunday iborasi bor: "yaxshi odamning uyidagi yomon xotin bu dunyoda do'zax ostonasidir" [Стен. отчет II, 1940: 18]

"Shuni aytish kerakki, - ta'kidlaydi olim, - bu vaqtda Sulton Husayn avvallari namoyon qilmagan jihatlari ko'rsata boshladi. Oldin g'azablanish holatlari bo'lib turardi,



shafqatsizlikka ham qodir edi, lekin u hiyla qilmasdi. Lekin bu vaqtga kelib har xil yomon xulq-atvor belgilarini ko'rsata boshladi, xususan, bu yerda xiyonat qildi: bir tomondan Alisher Navoiyni bitim uchun yuborib, ikkinchi tomondan, muzokara niqobi ostida yashirincha Badiuzzamonni qo'lga olib, olib kelishi kerak bo'lgan kishilarni yubordi. Ushbu o'rinda Sulton Husaynning ichki tanazzuli yaqqol ko'rinib turibdi". [Стен. отчет II, 1940: 19]

Shuningdek, ma'ruzadan Mo'min Mirzoning o'ldirilishi, Husayn Boyqaroning ishlaridan ranjigan Navoiy hajga ketmoqchi bo'lgani, Mashhaddagi shayxlar, taniqli kishilar undan Boyqaro va o'g'illarini yarashtirib qo'yishini iltimos qilishgani tafsilotlari ham o'rin olgan.

Husayn Boyqarodan Navoiyning hajga borishiga ruxsat bermasligi, chunki uning hayoti xavfsizligi uchun qayg'urishi, o'sha vaqtda yo'llar xatarli ekanligi haqida javob keladi. Albatta, bu bahona edi. Husayn Boyqaro ayni damda ikkovlari uchun umumiy hech narsa qolmaganini ich-ichidan sezib turardi va qo'rqardi. Bir tomondan, zarur paytda uning qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lishi mumkin, ikkinchi tomondan, agar Alisher Navoiy ketsa, qaytib kelmasligi mumkin. Bu uning obro'siga putur yetkazishi mumkin, hukmdor Navoiy bilan hisoblashardi. Shu tariqa, uni qo'yib yubormadi. [Стен. отчет II, 1940: 22]

Navoiy Hirotda qurilish ishlari bilan band bo'ladi, o'zi ham yeng shimarib ishlaydi. Jiyani Haydar Husayn Boyqaro tomonidan o'ldirilsa ham, munosabatini o'zgartirmaydi.

Suv Hirotda og'ir masala bo'lgan. Biror bino qurish uchun shaharning turli joylarida gul ekishardi, qaysi joyda gular yaxshi o'ssa va ancha payt yaxshi saqlansa, o'sha joyda suv bilan bog'liq muammolar yo'q deb hisoblanardi va o'sha joylarga binolar qurishardi. [Стен. отчет II, 1940: 37]

Shuningdek, ma'ruzada Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi ilm-fanning rivojlanishiga xayrixohligi, uning o'g'li Abdulatif bilan bo'lgan kelishmovchiliklari masalariga ham to'xtab o'tilgan.

A.G.Yakubovskiy Navoiy yubileyi arafasida tarixchilar faoliyatiga qiziqish ortganligi haqida gapirib, ayni shu pallada "Ravzat us-safo"ning VII kitobi hamda unga tenglashtirilgan "Habib us-siyar" asarini nashr etish muhimligini ta'kidlaydi. Agar bu asarlar tarjima qilinib, izohlari bilan chop etilsa, XV asr haqida eng qimmatbaho ma'lumotlarni beruvchi manba sifatida muomalaga kirgan bo'lardi, deb ta'kidlaydi ma'ruzachi. [Стен. отчет I, 1940: 41-41o6]

Keyingi ma'ruzachi taniqli arxeolog va san'atshunos olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Galina Pugachenkova. Olima Alisher Navoiy shaxsining jamiyatdagi o'rni haqida gapirgan. U Fridrix Engelsning Renessans haqidagi "То было время, не нуждавшееся в титанах и породившее титанов, титанов учености, духа и мысли" / "Bu buyuklarga muhtoj bo'lmagan hamda buyuklarni, bilim, ruh va tafakkur buyuklarini dunyoga keltirgan davr edi" (ba'zi manbalarga bu fikr Karl Marks tegishliligi keltirilgan) fikrini keltiradi hamda Alisher Navoiyni ham shunday buyuklardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

"O'rta Osiyoning zamonaviy respublikalari hududi – Movarounnahrda yashagan xalq madaniy taraqqiyoti avj nuqtasini nishonlamoqdamiz desak to'g'riroq bo'lardi, - fikr bildiradi ma'ruzachi, - chunki bu O'rta Osiyo madaniy hayotining yorqin davri, bu xalq uchun Navoiy maqsad timsoliga aylangan va uning nomi shunchalar qadrdon so'zga aylanganki, buni Mikelanjelo, Leonardo va Rafaelning Italiya Uyg'onish davri uchun yoki Shekspirning Yelizaveta Angliyasi davri uchun qimmatiga qiyoslash mumkin".



Yana bir ma'ruzachi professor A.Ye.Semyonov bo'lib, uning ma'ruzasi mavzusi – “Музыка в эпоху Алишера Навои”/ “Alisher Navoiy davrida musiqa”. Ma'ruzachi Hirotda xattotlik san'ati vakillari ko'p bo'lganligi hamda ularning mehnati qadrlanganini aytib o'tadi. Shu jumladan, tasviriy san'at rivojlanishi ham diqqatga sazovor bo'lgan. Olim xattotlik va tasviriy san'at bilan bir qatorda musiqa san'atiga e'tibor nafaqat Hirotda, balki butun Xurosonda yuksak bo'lganini e'tirof etadi. [Стен. отчет I, 1940: 47o6]

Ushbu ma'ruzada yana “navo” so'zining izohi keltiriladi. Shunday bir rivoyat keltiriladi. Unda aytilishicha, Navoiy hech bir shoir musiqasiz she'r yozolmasligini aytib, Binoiyga tanbeh beradi. Navoiy Husayn Boyqaro bilan Marvga ketganda, Binoiy musiqa chalishni o'rganadi, hatto musiqiy to'plam ham yaratadi. [Стен. отчет I, 1940: 50, 50o6]

Shuningdek, ma'ruzachi bilan o'tkazilgan savol-javoblar ham ushbu hujjatda o'z aksini topgan. Ularda Navoiy qo'lyozmalarining qaysi muzeylarda saqlanishi haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Professor A.A.Semyonovning ma'ruzasi “Иранская классическая литература”/ “Eron mumtoz adabiyoti” deb nomlangan. Unda Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Shams Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Qosim Anvor, Komil Xo'jandiy va boshqa ijodkorlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, g'azal tuzilishi, misra, bayt, shohbayt, qit'a, masnaviy, mutaqorib vazni haqidagi mulohazalarga to'xtab o'tilgan. Masnaviy janri haqida ma'lumot berilganda Jaloliddin Rumiya urg'u berilgan, chunki uning masnaviylari ko'plab tillarga tarjima qilingan. Shuningdek, ma'ruzada rorsiy adabiyotning 75%ini she'riyat tashkil etishi aytilgan.

Olimning aytishicha, “Ming bir kecha” hikoyalari islomgacha bo'lgan qadimiy Eronda paydo bo'lgan, keyin arab tiliga tarjima qilingan.

Ma'ruzada Abdurahmon Jomiy va uning “Nafohat ul-uns” asari haqida mulohaza yuritilgan. Semyonovning fikricha, Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy asarini qadrlagan holda o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ayrim o'rinlarini qisqartirgan, ayrim joylariga ma'lumotlar qo'shgan. Asosiysi, Sirdaryo sohillarida istiqomat qilgan turkiy shayxlar va so'fiylar ta'riflarini kiritgan hamda asarni “Nasoyim ul-muhabbat” deb nomlagan. Bu ikki asar bir-birini to'ldiradi, tasavvufni o'rganish bilan shug'ullanuvchilar bu ikkala mehnatni ko'rib chiqishlari zarur bo'ladi. [Стен. отчет I, 1940: 118-118o6]

Professor M.E.Massonning ma'ruzasi «Обсерватория Улугбека» / “Ulug'bek rasadxonasi” deb nomlangan. Ushbu ma'ruzada Mirzo Ulug'bek hukmronligi hamda ilmiy faoliyati davri ilm-ma'rifatiga alohida e'tibor qaratilgan. Olimning mashhur “Ziji Ko'ragoniy” jadvali xususiyatlariga alohida to'xtab o'tilgan.

Shuningdek, ma'ruzada olim Bartoldning tashabbusi bilan 1908-1909-yillarda O'rta va Sharqiy Osiyoni o'rganish qo'mitasi tomonidan tadqiqotchi Vyatkinning Mirzo Ulug'bekning rasadxonasi yuzasidan olib boradigan tadqiqot ishlariga mablag' ajratilganligi aytiladi. Rasadxona joylashish o'rnining aniqlanishi Vyatkin uchun turtki vazifasini o'tagan. [Стен. отчет II, 1940: 43]

Ma'ruzachi olimning ma'lumot berishicha, rasadxonani kavlash ishlari 1914-yildan boshlangan.

Professor M.E.Masson Mirzo Ulug'bekning shaxsiyati haqida gapirarkan, uning o'z davrining farzandi, o'z sinfining vakili bo'lgani, uning faoliyatiga ham ijobiy, ham salbiy nuqtayi nazardan qarashimiz zarurligini ta'kidlaydi. Mirzo Ulug'bek – sohibqironning nabirasi, uning



poytaxti vorisi va, albatta, taxtni egallash huquqi uchun kurashgan yirik amaldor. U – o'z kunlarini davlat ishlari, yurishlar, sershovqin ziyofatlar orasida taqsimlovchi hukmdor. [Стен. отчет II, 1940: 56] Shuningdek, olim uning ovga mukkasidan ketgan, qo'lga kiritgan o'ljalari hisobini yurituvchi odam bo'lganligini ham aytib o'tadi. [Стен. отчет II, 1940: 56o6]

Yuqoridagi fikrlarga shunday xulosalar keltirish mumkin:

1. XIX-XX asrlarda yashab o'tgan rus adabiyotshunoslari Sharq madaniyati va adabiyoti masalasiga jiddiy qaraganlar.
2. Agar madaniyat va fanga oid ma'lum mavzu doirasida fikr yuritilsa, uni tor yo'nalishda emas, keng va atroflicha o'rganishgan. Xususan, biz yuqorida qayd etgan Alisher Navoiy yubileyiga bag'ishlangan tadbirda faqat Navoiy haqida emas, balki turkiy xalqlarning kelish chiqish tarixi, Temuriylar davri, uning arxitekturasini kabi masalalar ham tadqiq etilgan.
3. Sifatlash, baholash va maqtov so'zlaridan ko'ra, aniq faktlarga ko'proq o'rin berilgan.
4. Jahon miqyosida Alisher Navoiyning o'rganilishi borada tadqiq etish kerak bo'lgan masalalar hali juda ko'pligiga amin bo'ldik.

References:

1. "Навоий замондошлари хотирасида". – Тошкент: Гафур Ғулом нашриёти, 1985. – 224б.
2. "Навоийнинг ижод олами". Мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 2001. – 200б.
3. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. – Toshkent, Sharq, 2010. – 528b.
4. Sirojiddinov Sh. va b. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – 520b.
5. Мадаев О. Навоий суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи НМИУ, 2018. – 248б.
6. Стенографический отчет курсов-конференций по изучению творчества Алишера Навои при ССП (союза советских писателей) Узбекистана. ЎзМА. Фонд 2356, опись(рўйхат) 1, дело 79, часть I.
7. Стенографический отчет курсов-конференций по изучению творчества Алишера Навои при ССП (союза советских писателей) Узбекистана. ЎзМА. Фонд 2356, опись(рўйхат) 1, дело 80, часть II.
8. Эркинов А. Навоийни англаш сари. – Анқара: Акчағ, 2021. – 468б.